



XURSHID DAVRON VA YASUSHI INOUE IJODIDA VAQT MODELLARI

Sattorova Gulmira Boburovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

o'qituvchi

gulmirasattorova22@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada doirasida Xurshid Davronning “Samarqand xayoli” va Yasushi Inouening “Seiiki monogatari” asarlarida vaqt modellari tahlil qilinadi. Shuningdek adabiyotshunoslikda vaqt modellari nazariyasini yoritish, “Samarqand xayoli”da vaqtning ramziy-siklik talqinini tahlil qilish, “Seiiki monogatari”da vaqtning tarixiy-geografik modelini aniqlash va ikkala asar misolida umumiylik va farqlarni qiyosiy o'rganish.

Kalit so'zlar: Xurshid Davron, “Samarqand xayoli”, Yasushi Inoue, “Seiiki monogatari”.

Insoniyat tarixida vaqt doimo eng murakkab falsafiy tushunchalardan biri bo'lib kelgan. Qadimgi yunon faylasuflari — Gerastratos, Platon va Aristotel vaqtni mavjudlikning asosiy o'lchovi deb bilishgan. Aristotelning “Fizika” asarida vaqt “harakat va o'zgarishning o'lchovi” sifatida ta'riflangan. Sharq tafakkurida ham vaqt muhim kategoriya hisoblangan: masalan, zardushtiylikda vaqt abadiylik va “zamonaviylik” (zarvan) sifatida talqin etilgan, Forobiy, Ibn Sino va G'azzoliy asarlarida vaqt inson hayoti, tafakkuri va olam tuzilishi bilan bog'liq holda tahlil qilingan[3;175]. Bu tafakkur Sharq adabiyotida vaqtning ramziy va falsafiy talqiniga asos bo'ldi.

XX asr va XXI asr adabiyotida vaqt modellari turlicha ko'rinish olgan bo'lsada, milliy adabiyotlarda vaqt modeli ko'proq tarixiy xotira va madaniy o'zlikni anglash bilan bog'liq bo'ldi, shuning uchun ham san'at va adabiyotda vaqt tushunchasi eng muhim falsafiy-estetik kategoriyalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda vaqt hodisasi turli jihatlarida tadqiq qilingan: masalan, M. Baxtin “xronotop” tushunchasini kiritib, vaqt va makonning badiiy asarda uzviy bog'liqligini asoslab bergan[10;54]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir yozuvchi yoki shoir o'zining badiiy olamida vaqtni turlicha modellashtiradi: kimdadir u tarixiy voqealar orqali ifodalansa, boshqasida ruhiy kechinmalar, xotira, mif va ramzlar orqali gavdalanadi.

O'zbek adabiy jarayonida Xurshid Davron ijodi alohida o'rin tutadi. U shoir, yozuvchi, dramaturg va tarixiy mavzularda qator asarlar yaratgan ijodkor sifatida tanilgan. Uning “Samarqand xayoli” asari ramziy-falsafiy qissa bo'lib,



unda Samarqand shahrining qadimiy tarixi, insoniyat taqdiri va orzularining uyg'unlashuvi tasvirlanadi. Asar bir qarashda tarixiy emas, ammo u tarixiy-madaniy qatlamlarga tayanadi. "Samarqand xayoli"da vaqt oqimi odatiy xronologik ketma-ketlikda emas, balki ramzlar, orzular va ichki monologlar orqali beriladi. Asarda vaqt ko'proq xotira sifatida yashaydi: o'tmish bilan hozirgi zamon, real voqelik bilan afsonaviy tasavvur qo'shilib ketadi. Shu sababli bu asarda vaqt modeli siklik va metaforik tus oladi. Samarqand timsoli — bu faqatgina shahar emas, balki o'tmish va kelajakning birlashgan nuqtasi sifatida gavdalanadi.

Yapon adabiyotining yirik vakili Yasushi Inoue asarlari esa tarixiy-falsafiy mazmuni bilan mashhur. U ko'plab tarixiy romanlar, esselar yozgan. Uning "Seiiki monogatari" asarida Samarqand, Buxoro kabi shaharlar muqaddas ilm va madaniyat o'choqlari sifatida tilga olinadi[1;98].

Inoue asarida vaqt modeli geografik va tarixiy xarakter kasb etadi. Vaqt bu yerda sayohat jarayoni orqali ochiladi: xaritalar, qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy yodgorliklar va madaniyatlar chorrahasi sifatida tasvirlanadi. Asarda vaqtning o'tishi insoniyat sivilizatsiyasi bilan bog'lanadi: qadimiy Samarqand va uning ilmiy-ma'naviy merosi hozirgi zamon o'quvchisiga ma'naviy saboq sifatida taqdim etiladi.

Insoniyat tarixida vaqt doimo eng murakkab falsafiy tushunchalardan biri bo'lib kelgan. Qadimgi yunon faylasuflari — Gerastratos, Platon va Aristotel vaqtning mavjudlikning asosiy o'lchovi deb bilishgan. Aristotelning "Fizika" asarida vaqt "harakat va o'zgarishning o'lchovi" sifatida ta'riflangan. Sharq tafakkurida ham vaqt muhim kategoriya hisoblangan: masalan, zardushtiylikda vaqt abadiylik va "zamonaviylik" (zarvan) sifatida talqin etilgan[9;85]. Forobiy, Ibn Sino va G'azzoliy asarlarida vaqt inson hayoti, tafakkuri va olam tuzilishi bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Bu tafakkur Sharq adabiyotida vaqtning ramziy va falsafiy talqiniga asos bo'ldi.

Adabiyotda vaqt turli shakllarda ifodalanishi mumkin va ular quyidagilar: 1. Xronologik vaqt — voqealar vaqt tartibida beriladi (masalan, tarixiy romanlarda); 2. Siklik vaqt — voqealar aylanma tarzda qaytadi, afsonalar va miflarda keng tarqalgan; 3. Psixologik vaqt — voqealar qahramon xotirasi, tushlari, ichki kechinmalari orqali ifodalanadi; 4. Mifologik vaqt — vaqt afsonaviy hodisalar va ramzlar orqali aks etadi; 5. Geografik vaqt — sayohat va makon almashinuvi orqali vaqt oqimi tasvirlanadi[10;65].

Sharq adabiyotida vaqt tushunchasi ko'pincha siklik va ramziy tus oladi. O'zbek zamonaviy adabiyotida, xususan Xurshid Davron ijodida vaqt ramziy va falsafiy o'lchamda talqin qilinadi. Uning "Samarqand xayoli" asarida vaqt metaforalar, tarixiy xotira va orzular orqali aks etadi. Bu Sharq an'anaviy poetikasiga xos yondashuvning zamonaviy shaklidir.



Yapon adabiyotida vaqt tasviri ko‘proq tabiat va tarix bilan uyg‘unlikda ko‘rinadi. Masalan, Yasushi Inouening asarlarida vaqt — tarixiy voqealar, geografik makon va madaniy almashinuv orqali tasvirlanadi. “Seiiki monogatari”da vaqt —sayohati orqali, Samarqand va boshqa shaharlarning tarixi ulug‘vorligi bilan bog‘liq holda beriladi[5;72].

Shu bois Xurshid Davron va Yasushi Inoue asarlaridagi vaqt modellari nafaqat ularning ijodiy uslubini, balki o‘zbek va yapon madaniyatlarining falsafiy asoslarini ham yoritib beradi.

Xurshid Davronning “Samarqand xayoli” asari — ramziy-falsafiy yo‘nalishda yozilgan qissa bo‘lib, unda Samarqand obrazi insoniyat xotirasi va madaniyatining abadiy timsoli sifatida gavdalanadi. Asarda an‘anaviy voqeabandlikdan ko‘ra, obrazlar, ramzlar va xayoliy sahnalar ustuvor. Shu sababli, vaqt ham oddiy xronologik tartibda emas, balki ichki kechinmalar, mifologik tasavvurlar va ramzlar orqali beriladi. Asar matnida Samarqand — bu faqat shahar emas, balki o‘tmish va kelajakning chorrahasi, insoniyat taqdirining ramziy makoni sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv Xurshid Davronning tarix va madaniyatga, xotira va orzuga o‘ziga xos qarashini ifodalaydi. Asarda vaqt ko‘proq ramzlar orqali ochiladi. Masalan: “Otlar — tarixning o‘tkir harakatini, vaqtning to‘xtovsiz oqimini ifodalaydi. Ular goh shiddatli, goh sokin tasvirlanadi, bu esa vaqtning turli qiyofalarini anglatadi” [8;125].

Samarqand shahri — abadiy xotira va insoniyat orzularining markazi sifatida ko‘rsatiladi. Shahar obrazi orqali o‘tmish (Buyuk ipak yo‘li, tarixiy imperiyalar) va kelajak (ilm, madaniyat, orzu) birlashtiriladi. Xotira va xayol — asarda qahramonning ichki monologlari orqali vaqt metaforik tarzda ifodalanadi. Asarda vaqt siklik xarakter kasb etadi. Bunga sabab: o‘tmish va kelajak doim bir-biriga ulanadi. Insoniyat tarixida urushlar, adolat, ilm va jaholat kabi hodisalar takror-takror yuzaga keladi. Samarqand obrazi esa bu sikllarning markazida turadi. Xurshid Davron bu orqali vaqtni chiziqli emas, balki aylanma tarzda ko‘rsatadi. Masalan, qadimiy shahar xarobalarida yotgan “uyqudagi tarix” uyg‘onadi va hozirgi zamonga ta’sir etadi.

Yasushi Inoue yuqorida aytilganidek ko‘plab tarixiy romanlar, esselar va hikoyalar yaratgan. Uning ijodida Sharq sivilizatsiyasiga, qadimiy tarixga va insoniy ruhiyatga bo‘lgan qiziqish kuchli. 1969-yilda yozilgan “Seiiki monogatari” uning eng mashhur asarlaridan biri sanaladi. Bu asar orqali Inoue qadimiy Buyuk Ipak yo‘lining madaniy almashuvini, ilm va din tarqalishini badiiy obrazlarda gavdalandiradi. Shu sababli undagi vaqt modeli bevosita tarixiy va geografik asosga tayanadi. “Asar voqealari bevosita tarixiy manbalarga asoslanadi. “Seiiki monogatari”da vaqt makon almashinuvi orqali ifodalanadi, ya’ni “sayohat = vaqt” formulasi yuzaga keladi[4;68]. Asarda faqat



tarixiy voqealar emas, balki qahramonlarning ichki kechinmalari ham muhim rol o'ynaydi. Uzoq safarda ular qo'rquv, umid, xayol va maqsad o'rtasida qoladilar. Bu — psixologik vaqtdir. Inoue tasvirida sayohatchining yuragida vaqt odatdagi chiziqli oqim emas, balki umid va qo'rquv o'rtasidagi kechinmalarning to'liqligi sifatida kechadi. Shu bilan birga, asarda vaqt falsafiy ma'noda ham talqin etiladi: insonning bu dunyodagi umri abadiylikka intilish, ilm va ma'naviyat orqali boqiylikka erishish vositasi sifatida tasvirlanadi. Asar tarixiy roman bo'lsa-da, unda ham Sharqqa xos siklik vaqt modeli mavjud. Masalan, tarixiy shaharlar ko'p marta vayron bo'lib, yana tiklangan, madaniyat bir necha bor gullagan. Bu qayta-qayta yuz beruvchi tarixiy jarayonlar insoniyat taqdirining aylanma tabiati sifatida beriladi. Samarqand obrazi esa bu abadiy aylanishning ramziga aylanadi: o'tkinchi hukmdorlar va davlatlar o'tadi, ammo shahar ilm va madaniyat maskani sifatida abadiy yashaydi.

Ko'rinadiki: "Samarqand xayoli"da vaqt — ramziy, siklik va psixologik shakilda bo'lsa, "Seiiki monogatari"da vaqt — tarixiy, geografik va falsafiy shakilda tasvirlanadi. Har ikkala asarda ham vaqt markaziy kategoriya hisoblanadi. Biroq mualliflarning milliy adabiyotga xos qarashlari tufayli u turlicha talqin etiladi. Shunga qaramay, har ikkala asarda ham Samarqand shunchaki shahar emas, balki tarix va madaniyatning ramzi sifatida tasvirlanadi. Davron uchun u xotira va orzular markazi bo'lsa, Inoue uchun u ilm va sivilizatsiya chorrahasi sifatida tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Иноуэ Ясуси // Япония от А до Я. Популярная иллюстрированная энциклопедия. (CD-ROM). — М.: Directmedia Publishing, «Япония сегодня», 2008. -С.193.
2. Маматкулова, Х. (2019). Особенности японской историографии в литературе периода Хейан. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 4(1 (70)), 59-63.
3. Gulmira, S. A. T. T. O. R. O. V. A. (2020). A typological study of the plot lines of Uzbek and Japanese folk tales. *JournalNX*, 6(07), 174-177.
4. 福田宏年『井上靖の世界』（Yasushi Inoue dunyosi), 講談社, 1932 年 9 月。
5. 井上靖エッセイ全集第 4 巻、第 5 巻、 学習研究社。



6. 宮崎健三「井上靖の詩業と文学的萌芽」“Yasushi Inoue she'riy muvaffaqiyati va adabiy rivoji) 長谷川泉編『井上靖研究』南窓社、1934年4月。
7. Inoue Y. Seiiki monogatari 西域物語. —USA:Kodansha, 2001.
8. Xurshid Davron. Samarqand xayoli. - T. Kamalak, 1991. 320
9. История всемирной литературы. М.:Наука.1988., том.7
10. М. М. Бахтин “Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике” М.:1975.